

orqa miyadan muskullarga uzatadigan nervlar, 4 – nerv impulslerini retseptorlardan orqa miyaga uzatadigan nervlar.

**O'ylab javob bering:**

1. Har qanday tana o'z og'irlik markaziga ega. Tinch turganda odam tanasi og'irligi markazi tovon gumbaziga tushadi. Nima sababdan odam qoqilib ketganida oldinga, sirpanib ketganida esa orqaga yiqiladi?
2. Doskaga chaqirilgan o'quvchi o'rnidan turishdan oldin tanasini oldinga egib, so'ngra turadi. O'quvchi nima sababdan shunday qiladi?

***1-laboratoriya mashg'uloti***

**Suyaklarning tuzilishi va tarkibini o'rganish**

*Kerakli jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:* Odam skeleti modeli, naysimon suyaklar kolleksiyasi, tovuqning son yoki boldir suyagi, yoki qo'yning qovurg'a suyagi, xlorid kislotaning 10 % li eritmasi yoki sirka kislota, stakan, pinset, suyaklarning rasmi.

***1-ish. Suyaklarning organik va mineral tarkibini aniqlash:***

- laboratoriya mashg'ulotidan 1–2 kun oldin xlorid kislota eritmasi yoki 50–70 ml sirka kislota quyilgan stakanga tovuq yoki qo'y suyagi solib qo'yiladi;
- mashg'ulot oldidan suyak pinset bilan kislotadan olinib, toza suvda yuviladi;
- kalsiysizlashtirilgan suyakning cho'zilishi va egilishi namoyish qilinadi.

***2-ish. Naysimon suyakning tuzilishini o'rganish:***

- naysimon suyaklardan biri tanlab olinib, uning tuzilishi ko'zdan kechiriladi;
- suyakning tanasi va ikki uchi aniqlanadi;
- suyakning uchki tomonlaridagi bo'g'im chuqurchasi va bo'rtig'i topiladi;
- suyakning tashqi tuzilishi rasm daftariga chiziladi va uning qismlari yozib qo'yiladi.